



TILSHUNOSLIKDA RAMZIY MA'NOLARNI TUSHUNISHNING O'ZIGA XOS  
AHAMIYATI

Qurbonova Dilnoza Allanazarovna

*National University of Uzbekistan.*

*Master's department. Linguistics English 2<sup>nd</sup> course*

**Annotation:** *This article deals with the special importance of understanding symbolic meanings in linguistics.*

**Key words:** *semantik maydon, lisoniy ma'no, ramziy obraz, semiotika, semiologiya, belgi, ramz, konsensus.*

So'zlarning ma'nolar silsilasi, semantik maydonini belgilash uchun har bir badiiy timsolning "lisoniy ma'no belgisi", "ramziy alifbo", "tushunchalar kaliti", "so'zlararo nisbiylik", "fonetik ifoda", "so'zlarning qiyomi", "ishoralar olami" kabi jihatlarini e'tiborga olish, so'zning lingvopoetik xususiyatlarini sinchiklab tadqiq etish zaruriyati vujudga keladi. Zero, "... semantik tahlilga tortilayotgan material ko'lami to'xtovsiz o'zgarib turibdi, u fonematik sath birliklardan boshlanib to yaxlit matnlar hududi, ba'zan matnlararo munosabatlarni ham qamrab olmoqda". Ya'ni, badiiy timsollarning talqinida matndagi distributiv va assotsiativ munosabatlar hamda shoir yashagan davrdagi ijtimoiy-madaniy muhitga tayanib ma'no qirralarini aniqlash samarali usul hisoblanadi. Tilshunos-olim L.Blumfild shunday ta'kidlaydi: "Har bir lisoniy shakl ma'nosiga aniq ilmiy tavsif berish uchun so'zlovchi atrofidagi olamning barcha narsa-hodisalari haqida muayyan ilmiy ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim". Darhaqiqat, so'z o'zining asl-tarixiy xususiyatlarini badiiy adabiyotda, xususan she'riy asarlarda saqlaydi. Bunday munosabat lug'aviy semantik birliklar tadqiqi, ayniqsa so'zlar talqinida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "poeziyada prozaga nisbatan so'zning semantik jihatdan faolligi, ma'nolar silsilasini yaratishda o'rni beqiyosligi va imkoniyatlarining kengligi namoyon bo'ladi"

Insoniyat tarixini, yashash tarzini, hayotning davomiyligini belgilersiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero inson, bu dunyoda yashashi uchun, ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun, qolaversa, o'zligini namoyon etish uchun ham belgilarni o'ylab topgan, desak xato bo'lmaydi. Shu bois, belgilar haqidagi ilm – semiotikani tadqiq etish, uning shakllanishi, rivojlanishi va mazmunini tahlil qilish har bir davrda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Simvollar nazariyasi hisoblanmish semiotika – yunoncha semeiotisos – belgilar haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi. U tabiiy, ya'ni inson tili, hayvonlarning belgi tizimlari va sun'iy ya'ni yasama, sun'iy tillar, dasturlash tili, matematika va mantiqdagi ramzlar tizimi kabi belgili tizimlarni o'rganish, tahlil qilish va yaratish bilan shug'ullanadi. Ijtimoiy hayotda narsa-hodisalar mazmunini topishda semiotika muhim o'rin tutadi. Shuningdek, semiotika turli belgilar tizimidagi axborotni yaratish, saqlash, yetkazib berish hamda



tuzilishi va vazifalarini o'rganuvchi nazariy ta'limotdir. Ijtimoiy hayotda semiotikaning bir necha ma'nolari qo'llaniladi.

Avvalo, u belgilar haqidagi fandir. Ikkinchidan, hozirgi zamon tibbiyotida semiotika tashhis qo'yishning alohida bo'limlaridan biri sanaladi. Unda kasallik alomatlari, belgilari aniqlanadi. Aslida "semiotika" so'zining kelib chiqishi ham tibbiyot bilan bog'liq. Chunki qadimgi grekchada semeiotikon - kasallik belgilarini aniqlovchi soha sanalgan. Shuningdek, G.Germes o'zining "Semiotika" asarida semiotikani matematika asoslariga taalluqli ilmiy yo'nalish sifatida yondashgan. Semiotika fan sifatida Yevropada XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan. Semiotika asoschisi mazkur atamani fanga kiritgan amerikalik mantiqchi, faylasuf va tabiatshunos olim CH.Pirsdir. Pirs belgi xususiyatlarini aniqlab, dastlabki belgilar (indeks, ikona, ramzlar) tasnifini yaratgan, mazkur yangi fanning maqsadi va tadqiqod doirasiga ko'ra vazifalarini belgilagan. Pirsning semiotik g'oyalari juda murakkab va noan'anaviy uslubda bo'lganligi bois, uning tadqiqotlari keyingi olimlar tomonidan soddalashtirilgan. 1930-yillarda boshqa bir amerikalik faylasuf CH.Morris tomonidan semiotikaning soddada strukturasi yaratildi. Biroq CH.Morris semiotikaning falsafiy bilimlarga emas, balki tabiiy fanlarga, xususan, biologiyaga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, semiotika hech qanday falsafaga asoslanmaydi. Bu biryoqlama yondashuv edi. Olim mantiqiy pozitivizm nuqtai nazaridan belgilar tizimini tahlil etganligi bois, uni ko'proq aniq va tabiiy fanlarning mevasi hisoblaydi. Mantiqiy pozitivistlarning keyingi vakili R.Karnap ijodida ham semiotikaning asosiy jihatlari o'rganilgan. Yana bir mantiqchi-faylasuf A.Tarskiyning asarlarida ham simvollar nazariyasining muhim xususiyatlari bilan bog'liq fikrlar uchraydi. Birmuncha keyinroq shveysar tilshunosi F. de Sossyur semiologiya asoslarining yangicha talqinini ishlab chiqdi. Olimning mashhur "Umumiy lingvistika kursi" asari uning vafotidan so'ng 1916-yilda shogirdlari tomonidan nashr qilindi. Sossyur jamiyatning ichidagi belgilar hayotini o'rganuvchi fanni - semiotika deb atagan. Asarda asosiy e'tibor qaratilgan "semiologiya" atamasi semiotikaning sinonimidir. 1923-yilda nemis faylasufi E.Kassirer ramziy shakllar falsafasiga oid uch jildli asarini chop etdi. Unda ijtimoiy hayotning turli belgilardan, ramzlardan iborat ekanligi ta'kidlanib, ularning barchasi falsafiy mushohada yuritishga sabab bo'luvchi hodisalar sifatida e'tirof etilgan.

XX asrda semiotika turli yo'nalishlarda rivoj topdi. Amerika semiotikasida tadqiqot obyektini sifatida asosan noverbal ramzlar tizimi, masalan hayvonlar hatti-harakati yoki tili o'rganildi. Yevropada, aksincha, Sossyur boshlab bergan an'ana davom ettirildi. YA'ni, semiotika, avvalo, lingvistlar - L.Elmslev, S.O.Karsevskiy, N.S.Trubetskiy, R.O.Yakobson va boshqalar, va adabiyotshunoslar - V.YA.Propp, YU.N.Tymyanov, B.M.Eyxenbaum va boshqa soha vakillari tomonidan o'rganildi. 1964-yilda "Belgili tizimlar" haqida tayyorlangan tadqiqot ishlari to'plami M.YU.Lotman, Z.G.Mins, I.A.Chernovlar boshchiligida birinchi bor nashr qilindi va keyingi yillarda semiotikaga bag'ishlangan tadqiqotlarni muntazam chop etish yo'lga qo'yildi. Shu tahlit rus faylasuf-mantiqchilarining semiotika masalalariga bag'ishlangan Moskva-Tartu maktabi shakllandi va rivojlandi. Dastlab, ushbu maktab vakillari soddada va oddiy tizimlar - yo'l belgilari, karta o'yinlari kabilarni tahlil qildi. Keyinchalik, ular mifologiya, folklor, adabiyotshunoslik va



san'at belgilarini o'rgana boshladi. Hozirgi semiotika esa, bugungi kunda madaniyat fenomenining belgisi xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratmoqda. Umuman olganda, bugunga kelib belgi va mazmun dialektikasini o'rganuvchi – semiotika o'zining mustahkam metodologik asoslariga ega bo'ldi. Yuqorida aytilganidek semiotika – belgi va ramzlar haqidagi ta'limotdir. Oldingi mavzularda belgiga biror-bir tasavvur, fikr, holat kabilarni ifodalovchi, yetkazib beruvchi, shu bilan birga, yaratuvchi mustaqil hodisa, deya ta'rif berilgan edi. Xo'sh, ramz deb nimaga aytiladi? Uning belgidan asosiy farqi nimada?

Ramz (simvol) yunoncha "symbolon" – ramz, shartli belgi, tamg'a yoki nishon degan ma'nolarni bildiradi. O'z tabiatiga ko'ra, moddiy yoki ma'naviy hodisa bo'lib, muayyan mavhum g'oya yoki tushunchani hissiy obrazli - timsol tarzida ifoda etadi. Ramz oddiy yozma yoki tovushli til belgilaridan farqli o'laroq, olamning u yoki bu hodisasi emas, balki bilvosita – hissiy yoki mantiqiy obraz vositasida inson uchun muayyan mavhum tushuncha shaklida aks ettiradi. Ramz kelib chiqish nuqtai-nazaridan biron shartli belgini o'zida ifodalaydi. E.Kassirer ham ramzni "hissiy ot orqali qabul qilinuvchi belgilar va obrazlardan tashkil topgan", deb xisoblaydi. Ramzni yaratuvchisi inson yoki insonlar jamoasi bo'lib, yaratayotgan ramzlariga o'zlarining maqsadlarini, orzu-umidlarni, qarashlarini mujassamlashtiradi. Natijada yaratilgan ramz konkret obyektga ifodalaydi va qadriyat darajasiga ko'tariladi. Bu esa ramzning faqatgina insonlar orasidagi munosabatlardagina ma'lum qiymatga egaligini ko'rsatadi. E.Kassirer til, mif, din, fan "ramziy shakllar" bo'lib, ularning vositasida inson o'zini qurshagan muhitni tartibga soladi, deydi. Ramz faqat odamlar muloqoti doirasida mavjud bo'lib, u sof ijtimoiy hodisadir. Bugungi kunda ramz inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan, insonning o'zi uni muallifi va iste'molchisidir. Insonlar o'zaro munosabatlarini ramziylashtirar ekan bundan faqatgina turmush tarzini ma'lum ma'noda yangillashtirishni ko'zlaydilar. Ramzning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish o'rinli:

- falsafiy jihatdan, ramz tafakkur mahsuli va tafakkur ramzda aks etadi (germenevtik aylana tarzida);
- germenevtik jihatdan, har qanday ramz ma'lum bir ma'noni ifoda etadi, uni tushuntiradi;
- gnoseologik jihatdan, ramzni ma'lum kishilar (turli ijtimoiy guruh va qatlamlar) o'z bilim darajasi va bilish miqyoslari darajasida yaratadi va anglab yetadi;
- ontologik jihatdan, butun borliq ramzlardan tashkil topadi;
- psixologik jihatdan, ramzda doim muayyan ruhiyat va kayfiyat mavjud;
- sotsiologik jihatdan, ramz doim ijtimoiy xarakterga ega;
- aksiologik jihatdan, ramz qadriyat darajasida namoyon bo'ladi.

Ramzning belgidan asosiy farqi shundaki, unda obyekt (yoki element) borliqdagi kabi aynan emas, balki ma'juziy-obrazli shaklda ifodalanadi va insonlar tomonidan yaratiladi hamda u doim konsensus – inson kelishuvi, hamfikrligiga tayanadi. Belgi esa, mavjud bo'lishi uchun konsensusga muhtoj emas. Falsafiy adabiyotlarda semiotika so'zini birinchi marta Dj.Lokk ishlatgan. Qizig'i shundaki, XVII asrda Dj.Lokk o'zining "Inson aqli haqida tajriba" (1690) asarida ong va tabiatni bog'lovchi vositalar –belgilar bo'lib, ularni semiotika



o'rganadi, deya e'tirof etgan. Faqat XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelibgina ushbu fan tarmog'i ilmiy doiraga kirib keldi. Lokk semiotikani mantiq faniga o'xshatadi. U xatto, uchinchi kitob "Tajribalar"da tabiat va inson faoliyatini bog'lovchi bir nechta semiotik muammolarni ham tahlil qilgan. Tarixan, belgilar haqidagi fan, uning mohiyati xususidagi fikrlarda bir-biriga o'xshash va yaqin xulosalar ko'p bo'lsa-da, biroq ularning ayrimlarida keskin farqlar (jumladan, CH.Pirs va F. de Sossyurda) ham mavjud. Pirs semiotikani "munosabatlarning universal algebrasi" deb atab, matematikaning bir qismi deb hisoblasa, F. de Sossyur uni psixologiyaga taalluqli bilim sifatida gumanitar fan tarmog'iga mansub, deb hisoblashini ham alohida takidlab o'tish kerak bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR:

Germes G. Принципы типологического анализа языков различного строя. –M:Nauka, 1972.

Tarskiy A. Kontrastivnaya sintaksicheskaya semantika. Oпыt opisaniya.- M.:Nauka, 1990.

Fillmore Charles J. Remarks on Contrastive Pragmatics //In - J.Fisiak (ed.), Contrastive Linguistics- Prospects and Problems. - Padstow, 1984.